

“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston Respublikasi
Raqamli texnologiyalar vaziri,
Vazirlik Ma’naviyat va ma’rifat
kengashi raisi**



Sh.Shermatov
2023-yil 25-dekabr

**O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi
Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishining
BAYONI**

2023-yil 15-dekabr

1-son

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: Sh. Shermatov, Raqamli texnologiyalar vaziri, Vazirlik Ma’naviyat va ma’rifat kengashi raisi

Kengash a’zolari: O. Pekos, J. Maxsudov, R. Karimjonov, D. Rustamov, J. Egamberdiyev, K. Sabirova, A. Ishanxodjaev, E. Rasulov, F. Anvarov, I. Turayev, Sh. Axmatov, M.Chuliyeva

Kengash raisi yig‘ilish kun tartibini muhokamaga qo‘ydi va Kengash a’zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilindi.

KUN TARTIBI:

**O‘zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligi tizimida
ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish
bo‘yicha 2023-yil uchun “yo‘l xaritasi” doirasida amalga oshirilgan ishlar
to‘g‘risida**

Sh. Shermatov, O. Pekos, J. Maxsudov, R. Karimjonov, D. Rustamov, J. Egamberdiyev, A. Ishanxodjaev...,
Sh. Shermatov

Yig‘ilishni Raqamli texnologiyalar vaziri, Vazirlik Ma’naviyat va ma’rifat kengashi raisi Sh.Shermatov kirish so‘zi bilan ochib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ–4307-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2021-yil 19-yanvar kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining videoselektor tarzida o‘tkazilgan

majlisning 3-son bayoni ijrosini ta'minlash hamda O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar ta'sirchanligini oshirish, ma'naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid, xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, rahbar-xodimlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda ularga yaqindan ko'maklashish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligida ham Ma'naviyat va ma'rifat kengashi tuzilganligini ma'lum qilib, Vazirlik hamda tizimdagi barcha korxona va tashkilotlarda ushbu yo'nalishdagi faoliyatni yanada takomillashtirish zarurligini alohida qayd etdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan so'zga chiqqan Vazirning ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili qonun hujjatlariga rioya etilishi masalalari bo'yicha maslahatchisi N.Abdullayev O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qarori bilan tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"ning 2-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida 2023-yil 26-oktabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan Vazirlikda o'rganish o'tkazilgani, o'rganish yakunlariga ko'ra, Vazirlikda Ma'naviyat va ma'rifat kengashi tuzilmaganligi qayd etilgani, mazkur kamchilikni bartaraf etish maqsadida Vazirlikning 2023-yil 27-oktabrdagi 283-son buyrug'i bilan:

Raqamli texnologiyalar vazirligi Ma'naviyat va ma'rifat kengashi tarkibi;

Raqamli texnologiyalar vazirligi Ma'naviyat va ma'rifat kengashi Nizomi;

Raqamli texnologiyalar vazirligi Ma'naviyat va ma'rifat kengashining Reglamenti tasdiqlanganligini aytib o'tdi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligi tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha 2023-yil uchun "yo'l xaritasi" 2023-yil 30-yanvarda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bilan kelishilgan holda qabul qilinganligini hamda unda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan quyidagilarni ma'lum qildi:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi va Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyatini keng targ'ib qilish maqsadida Vazirlik hamda uning tizimidagi agentlik, inspeksiya, aksiyadorlik kompaniyalari, jamiyatlari, korxona, tashkilot va muassasalarda muntazam turli ko'rinishdagi tadbirlar o'tkazildi. Xususan, Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Yangi O'zbekiston strategiyasi", "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik", "Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz", "Inson qadri" kabi kitoblar va to'plamlar Vazirlik markaziy apparati hamda uning tizimidagi korxona va tashkilotlarga tarqatildi.

Ikkinchidan, Vazirlik va tizimdagi korxona va tashkilotlarda **13 marta "Kitob yarmarka"**si tashkil qilindi.

Uchinchidan, Vazirlik hamda uning tizimidagi korxona va tashkilotlar rahbar-xodimlarining "Men yurtimni sevaman" shiori ostida **19 marta** respublikaning turli hududlariga sayohatlari tashkil qilindi.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 11-iyuldagi PQ–222-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida:

Vazirlik hamda “Alisher Navoiy nomli kinosaroy Cinema Palase” DUK o‘rtasidagi 2023-yil 30-avgustdagi X/K-4-son shartnomaga asosan 100 dona chipta xarid qilindi. 2023-yil 2-sentabr kuni 100 nafar Vazirlik xodimi hamda ularning oila a‘zolari “Salom yanga” nomli milliy badiiy film namoyishida ishtirok etdi.

Raqamli texnologiyalar vazirligi Kasaba uyushmasi qo‘mitasi hamda O‘zbek Milliy Akademik drama teatri o‘rtasida 2023-yil 29-noyabrdagi 278-son shartnoma imzolandi. Ushbu shartnomaga asosan 8-dekabr kuni namoyish etilgan “Keldiyu ketdi” komediyasi uchun 100 dona chipta xarid qilindi. Ushbu chiptalar 8-dekabr - O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va 10-dekabr - Davlat Madhiyasi qabul qilinganligining 31-yilligi munosabati bilan Vazirlik Markaziy apparatining 50 nafar xodimiga bepul tarqatildi.

Beshinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida haftaning har juma kuni soat 09:00da bo‘lib o‘tgan siyosiy-o‘quv soatlarida Vazirlik va uning tizimidagi korxona va tashkilotlar vakillarining **48 marta ishtiroki** ta’minlandi.

Oltinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga oid qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyati yuzasidan doimiy ravishda Vazirlik hamda uning tizimidagi agentlik, inspeksiya, aksiyadorlik kompaniyalari, jamiyatlari, korxona, tashkilot va muassasalar xodimlariga **20 martadan ko‘proq tushuntirish ishlari** olib borildi.

Yettinchidan, ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida **10 marta “Zakovat” intellektual o‘yinlari** o‘tkazildi.

Sakkizinchidan, xodimlar va talabalarning **10 marta teatr va muzeylarga tashrifi** tashkil etildi.

To‘qqizinchidan, “Sport – salomatlik garovi” shiori ostida Vazirlik va uning tizimidagi korxona hamda tashkilotlar xodimlari o‘rtasida **20 dan ortiq sport musobaqalari** o‘tkazildi.

O‘ninchidan, quyidagi sanalar munosabati bilan SMS-tabriklar yuborildi:

- 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni;
- 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni;
- 21-mart – Navro‘z umumxalq bayrami;
- 9-may – Xotira va qadrlash kuni;
- 15-may – Xalqaro oila kuni
- 1-sentabr – Mustaqillik kuni;
- 21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kuni;
- 18-noyabr – Davlat bayrog‘i kuni;
- 8-dekabr – Konstitutsiya kuni.

O‘n birinchidan, 21-oktabr – “O‘zbek tili bayrami kuni”, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun munosabati bilan **16 ta turli ko‘rinishdagi tadbirlar** tashkil qilindi. Bundan tashqari, Vazirlik hamda uning tizimidagi korxona va tashkilotlar tomonidan bayram munosabati bilan tabriklar e‘lon qilindi, **10 dan ortiq videoroliklar tayyorlanib**, keng tarqatildi.

O‘n ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i qabul qilinganligining 32 yilligi munosabati bilan **16 ta turli tadbir** o‘tkazildi.

O‘n uchinchidan, 8-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni munosabati bilan Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda uning tizimidagi korxona va tashkilotlar tomonidan **21 ta ma‘naviy-ma‘rifiy uchrashuvlar, davra suhbatlari hamda boshqa tadbirlar** tashkil qilindi.

O‘n to‘rtinchidan, 2023-yil davomida “Jaholatga qarshi ma‘rifat” shiori ostida **19 ta tadbir** tashkil qilindi.

O‘n beshinchidan, Vazirlik va uning tizimidagi korxona hamda tashkilotlarda “Korrupsiyaga qarshi kurashish”ni keng targ‘ib qilish maqsadida **24 ta turli tadbirlar** tashkil qilindi.

O‘n oltinchidan, O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi mazmun-mohiyatiga bag‘ishlangan **14 ta tadbir** o‘tkazildi.

O‘n yettinchidan, Vazirlik hamda uning tizimidagi korxona va tashkilotlarda ishlarni davlat tilida tashkil etish jarayonlari doimiy ravishda muvofiqlashtirib borilmoqda. Hozirda nafaqat vazirlik, balki uning tizimidagi barcha tashkilotlar lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida ish yuritib kelmoqda. Ish jarayonida kuzatilayotgan kamchiliklar ishchi tartibda bartaraf etilmoqda.

O‘n sakkizinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to‘liq o‘tishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 10-fevraldagi 61-son hamda “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2021-yil 28-oktabrdagi 662-son qarorlari asosida Vazirlik tomonidan tayyorlangan **34 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi lingvistik ekspertizadan o‘tkazildi** va o‘rnatilgan tartibda xulosalar taqdim qilindi.

O‘n to‘qqizinchidan, muntazam ravishda Vazirlikning boshqarma va bo‘limlari tomonidan tayyorlangan **1100 dan ortiq buyruq, farmoyishlar, Vazirlik nomidan turli vazirlik va idoralarga chiqariladigan murojaat xatlari** qat‘iy tarzda davlat tili qoidalariga mosligi yuzasidan ko‘rikdan o‘tkazilib, tuzatishlar bilan kelishib berib kelinmoqda.

Yigirmanchidan, Vazirlik markaziy apparati boshqarma va bo‘limlari, shuningdek, tizimdagi korxona va tashkilotlarning **204 nafar xodimining** “Davlat tilida ish yuritish asoslari” bo‘yicha malakasi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi hamda uning hududiy filiallarida oshirilishi muvofiqlashtirib borildi.

Yigirma birinchidan, Vazir maslahatchisi N.Abdullayev, O‘zkomnazorat inspeksiyasining **3** nafar xodimi Adliya vazirligi yuristlar malakasini oshirish

markazida **“Davlat tilida ish yuritish asoslari”** bo'yicha o'quv kursida, 1 nafar xodim Notiqlik san'ati Akademiyasi nodavlat ta'lim muassasasida **“Notiqlik san'ati: kommunikativ kompetentlik, muloqot va muomala madaniyati asoslari”** o'quv kursida malaka oshirdi.

Shuningdek, 15-sentabr kuni “O'zbek tilini chuqur o'rgatish muammolariga bag'ishlangan ilmiy-nazariy adabiyotlar, metodik qo'llanmalar va lug'atlar yaratish bo'yicha respublika ilmiy-amaliy seminari”da ishtirok etildi hamda “Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug'ati” haqida seminar qatnashchilariga batafsil ma'lumotlar berildi.

Vazirlikning 2023-yil 3-oktabrdagi 262-son buyrug'i bilan **Raqamli texnologiyalar vazirligining Atamalar bo'yicha ishchi guruhi** faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmonining 2-ilovasi 9-bandini ijrosini ta'minlash maqsadida Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan “UNICON.UZ” DUK hamda tizimdagi qator korxona va tashkilotlar bilan hamkorlikda “Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug'ati” yaratildi. Mazkur lug'at Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan 1000 dona nashr qilinishi rejalashtirilgan bo'lib, bugungi kunda AKTga ko'rsatilayotgan e'tibor va talab inobatga olinib, Jamg'arma tomonidan 2000 dona chop etildi. Ushbu lug'atlar vazirlik va idoralar, shuningdek, mahalliy hokimliklarga bepul tarqatildi. Lug'at taqdimoti ilk marta Vazirlikda **2023-yil 27-yanvarda otkazildi.**

25-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan <https://tahrirlovchi.uz> loyihasi hamda “Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug'ati”ning taqdimoti o'tkazildi (to'liq hisobot ilova qilinadi).

Vazir maslahatchisi N.Abdullayev yuqorida keltirilgan tadbirlarni yuqori saviyada tashkil qilish va o'tkazishda Vazirlikning Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'limi, Vazirlik Kasaba uyushmasi qo'mitasi, Ichki audit va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi, Telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi, Buxgalteriya hisobi bo'limi yaqindan yordam ko'rsatganligini alohida ta'kidlab o'tdi.

Bundan tashqari, Vazirlik tizimidagi korxona va tashkilotlar rahbarlari hamda ularda ushbu masalaga mas'ul etib tayinlangan xodimlar ham mazkur “yo'l xaritasi”da belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashga o'zlarining munosib hissalarini qo'shganligini qayd etdi hamda korxona va tashkilotlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish hamda davlat tilida ish yuritishni yo'lga qo'yishda alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarni o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, rag'batlantirish taklifini berdi.

Raqamli texnologiyalar vaziri Sh.Shermatov bugungi kunda Vazirlik hamda soha korxonalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish, xodimlar ishtirokida ushbu yo'nalishdagi tadbirlar, uchrashuvlar, davra suhbatlarini o'tkazish, xodimlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish,

o'zbek va jahon adabiyoti namunalari o'rin kutubxonalar tashkil qilish zarurligini ta'kidladi.

Masala yuzasidan yig'ilish ishtirokchilari o'z taklif va mulohazalarini bildirdi.

Bildirilgan fikr-mulohazalar asosida **kengash qaror qiladi:**

1. Vazir maslahatchisi N.Abdullayevning:

O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligi tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha 2023-yil uchun "yo'l xaritasi" ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi axborot ma'lumot uchun qabul qilinsin;

Vazirlik tizimidagi korxona va tashkilotlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish hamda davlat tilida ish yuritishni yo'lga qo'yishda alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarni o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, rag'batlantirish taklifi ma'qullansin.

2. Vazirlik markaziy apparati boshqarma, bo'lim va hududiy sho'balari rahbarlari:

O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligi tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha 2024-yil uchun "yo'l xaritasi"da belgilangan vazifalarni o'z vaqtida, sifatli bajarish choralari ko'rsin;

2024-yilda Vazirlikda o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda xodimlarining faol ishtirokini ta'minlasin.

3. Vazirlik tizimidagi agentlik, inspeksiya, aksiyadorlik kompaniyalari, jamiyatlari, korxona, tashkilot va muassasalar:

ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish, xodimlar ishtirokida ushbu yo'nalishdagi tadbirlar, uchrashuvlar, davra suhbatlarini o'tkazish, xodimlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, o'zbek va jahon adabiyoti namunalari o'rin olgan kutubxonalar tashkil qilish;

ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish hamda davlat tilida ish yuritishni yo'lga qo'yishda alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarni rag'batlantirish choralari ko'rsin va bu haqida Vazirlikka ma'lumot kiritsin;

2024-yil 10-yanvarga qadar ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish, shuningdek, korxona va tashkilotlarda davlat tilida ish yuritilishini ta'minlashga qaratilgan "yo'l xarita"larini ishlab chiqsin, tasdiqlasin hamda Vazirlikka kiritsin.

4. Kengash a'zolari mazkur yig'ilish qarori hamda ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan 2024-yil uchun mo'ljallangan "yo'l xaritasi"da belgilangan o'z yo'nalishlari bo'yicha vazifalarning bajarilishiga mas'ul ekanligi belgilab qo'yilsin.

5. Vazir maslahatchisi N.Abdullayev:

O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligi tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha 2024-yil uchun "yo'l xaritasi" ishlab chiqilishini, Respublika Ma'naviyat va

ma'rifat markazi bilan kelishilgan holda tasdiqlanishini hamda ijro uchun Vazirlik markaziy apparati boshqarma va bo'limlari, shuningdek, tizimdagi korxona va tashkilotlarga yuborilishini ta'minlasin;

Kengash qarori ijrosi ta'minlanishi ustidan doimiy nazorat o'rnatsin.

Kengash kotibi

N.Abdullayev